

# Etnopedagogik yondashuv asosida bo'lajak pedagogika o'qituvchilarida gender tolerantlikni rivojlantirish

Nigora Jamolxonovna Xayrullayeva  
KIUT Namangan filiali

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada etnopedagogik yondashuv asosida pedagogika ta'lim yo'nalishi talabalarida gender tolerantlikni rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni yaratish usullari, etnopedagogik metodlar talabalarda gender tolerantlikni shakllantiruvchi tarbiya jarayonini boyitish, jonlantirish va maqsadli tashkil etishda muhim o'rin tutishi, gender tolerantlikni shakllantiruvchi tarbiyaviy texnologiyalar talabalarda jamoa bilan ishlash, bir-birini tushunish, muammolarni birgalikda hal qilish kabi ko'nikmalarni boyitish bilan birga, xususiy holatlarda genderlashgan stereotiplarni bartaraf etish tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** etnopedagogika, etnopedagogik yondashuv, gender, gender tolerantlik, gender stereotiplar, qadriyat, mentalitet, pedagogika, pedagogik metodlar

## Developing gender tolerance in future teachers of pedagogy based on an ethnopedagogical approach

Nigora Jamolkhonovna Khayrullayeva  
KIUT Namangan branch

**Abstract:** This article analyzes the methods of creating necessary conditions for developing gender tolerance among students of pedagogical education through an ethnopedagogical approach. It highlights that ethnopedagogical methods play a crucial role in enriching, revitalizing, and purposefully organizing the educational process focused on fostering gender tolerance. Furthermore, the article examines how educational technologies designed to cultivate gender tolerance enhance students' skills in teamwork, mutual understanding, and collective problem-solving, while specifically addressing the elimination of gender stereotypes in particular contexts.

**Keywords:** ethnopedagogy, ethnopedagogical approach, gender, gender tolerance, gender stereotypes, value, mentality, pedagogy, pedagogical methods

### KIRISH

O'zbekistonda talabalar ongi va dunyoqarashida gender tolerantlikni rivojlantirish masalasi tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Mamlakatda jinslar o'rtasidagi teng huquqlilik va hurmat muhitini yaratuvchi huquqiy-me'yoriy hujjatlar

takomillashtirilib, 2019-yilda qabul qilingan "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquqlar hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi Qonun, 2030-yilgacha mo'ljallangan Gender tenglik strategiyasi, Oliy Majlis Senati huzuridagi Gender tenglikni ta'minlash bo'yicha komissiyaning faoliyati orqali gender munosabatlarini rivojlantirishga zamin hozirlanmoqda. Shu bilan birga, oliy ta'lim muassasalari tarkibida tarbiyaviy ishlarni xalq an'analari va zamonaviy talablar bilan uyg'un ravishda olib borish maqsadida maxsus dastur va loyihalar ishlab chiqish, talabalar orasida bag'rikenglik muhitini mustahkamlashga xizmat qiluvchi tadbirlarni tashkil qilish dolzarb vazifalardan biriga aylanmoqda. Bu esa, etnopedagogik yondashuv asosida pedagogika yo'nalishi talabalarida gender tolerantlikni rivojlantirishni taqozo etadi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Talabalarda gender tolerantlikni rivojlantirish masalasi, xususan, etnopedagogik yondashuv asosida bu muammoning ilmiy-nazariy jihatlarini chuqur o'rganish zarurati so'nggi yillarda bir qator o'zbek olimlari - Q.Nazarov, Z.Alimov, M.Husanov, S.Sodiqova, B.To'ychiyev, Sh.Qoriyev, X.Xodjayevalar tomonidan tadqiq etilgan. Jumladan, Q.Nazarov o'z tadqiqotlarida etnopedagogik qadriyatlar orqali talabalarda bag'rikenglik va xushmuomalalik fazilatlarini rivojlantirish yo'llarini ko'rsatib bergan bo'lsa, Z.Alimov milliy urf-odatlarimizdagi jinslararo hamjihatlik omillarini e'tirof etib, ularni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqqan.

Mazkur masalada M.Husanov tomonidan olib borilgan tadqiqotlar talabalarning gender tushunchasiga munosabati, ayol va erkakning jamiyatdagi o'rni, ularning tarbiyaviy jarayonlardagi ishtiroki, hamda etnopedagogik qadriyatlarga ko'ra shakllangan ijtimoiy munosabatlar bilan bevosita uzviy bog'liqligini ko'rsatadi. Shuningdek, S.Sodiqova gender madaniyatini milliy qadriyatlarimiz yordamida rivojlantirish usullarini bayon etadi, bunda oila tarbiyasi va an'anaviy axloq normalari muhim o'rin tutishini ta'kidlaydi. N.Normatova o'z tadqiqotida talabalarda gender tolerantlikni rivojlantirishda ijtimoiy-psixologik omillarga alohida e'tibor qaratadi. Unda talabalar turli ijtimoiy rollarni bajarish jarayonida paydo bo'ladigan nizoli vaziyatlarni, gender stereotiplarni bartaraf etish borasidagi etnopedagogik yondashuvni tahlil qiladi. U.Raxmonov esa ayni muammoni yechishda interfaol usullar, drama va rolli o'yinlar, milliy marosimlar, qadriyatlar asosidagi mashg'ulotlar samaradorligi haqida mulohaza bildiradi. A.Rahimov milliy

<sup>1</sup> M.Хусанов. Педагогик жараёнда гендер тушунчасининг этнопедагогик талқини. – Тошкент: "Низомий номидаги ТДПУ нашриёти", 2019. – 58–60-бетлар; S.Sodiqova. Gender madaniyatini milliy qadriyatlar orqali shakllantirish. – Toshkent: "O'qituvchi", 2017. – 72–74-бетлар; Н.Норматова. Талабалар орасида гендер толерантликни ривожлантиришнинг ижтимоий-психологик омиллари. – Тошкент: "Фан ва технология", 2021. – 81–84-бетлар; Б.Тўйчиев. Гендер толерантликни шакллантиришнинг педагогик-психологик асослари. – Тошкент: "Мухаррир", 2020. – 65–67-бетлар; X.Xodjayeva. Ta'lim tizimida gender tolerantlikning pedagogik ahamiyati. – Toshkent: "Nizomiy nomidagi TDFPU nashriyoti", 2019. – 15–17-бетлар;

mentalitetimizdagi erkak va ayolning jamiyatdagi mavqei, ularni tarbiyalashdagi tarixiy tajribalar hamda bugungi globallashuv sharoitida etnopedagogik yondashuvning ahamiyatini chuqur tadqiq qilgan. Shu bilan birga, B.To'ychiyev asarlarida gender tolerantlik ijtimoiy axloq va madaniy aloqalarni mustahkamlashda muhim vosita sifatida ko'rib chiqiladi, bunda talabalar ongida insonparvarlik, o'zaro hurmat, bag'rikenglik kabi xususiyatlarni rivojlantirishning pedagogik-psixologik texnologiyalari ko'rsatiladi. Sh.Qoriyev milliy urf-odatlarimizdagi bayramlar, marosimlar va udumlar orqali talabalar dunyoqarashida jinslararo munosabatlarga oid ijobiy tasavvurni rivojlantirish imkoniyatlarini o'rganadi. X.Xodjayeva ilmiy izlanishlarida gender tolerantlikning pedagogik ahamiyatini chuqur tahlil etib, bu masalani tarbiya jarayonining ajralmas qismi deb e'tirof etadi. Milliy an'analarni pedagogika nazariyasi bilan uyg'unlashtirish masalasi juda ko'plab manbalarda turlicha yoritilgan.

Masalan, B.Xodjayev "Pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi" asarida har bir etnosda tarixiy urf-odatlar qanday saqlanib qolingani, ular ilmiy asosda qanday tatbiq etilishi mumkinligi haqida fikr yuritadi<sup>2</sup>. Muallif ta'kidlashicha, milliy an'analarni to'g'ridan-to'g'ri ko'chirish yoki ularni ko'r-ko'rona saqlab qolish emas, balki ularni ilmiy izohlash, tarixi va ma'no-mazmunini, tarbiya jarayonidagi ahamiyatini aniqlash, shundan keyingina tanqidiy ko'nikma bilan ularni yangi avlod tarbiyasida qat'iy qo'llash zarur. Ana shundagina an'analar qadri tushuniladi, ularni maqsadsiz ravishda qaytarish emas, balki tushuncha asosida anglab yetish ruhida yoshlar tarbiyasi yo'lga qo'yiladi. Bu fikr zehniyatda maromi bilan shakllanishi uchun esa, etnopedagogika ilmiy jihatdan asoslangan holda ta'lim muassasalarida nazariy va amaliy mashg'ulotlar orqali tatbiq etilishi maqsadga muvofiqdir.

Keyingi bir muhim masala - etnopedagogikaning metodlari va ularning konseptual mohiyat bilan uzviy bog'liqligi. Pedagogik metodlar, avvalo, ta'lim maqsadlariga erishish uchun yo'llanma bo'ladi. Agar etnopedagogika milliy tafakkur, an'ana, qadriyatlarga tayanar ekan, unda qo'llaniladigan metodlar ham yuqoridagi tushunchalarni shogirdlar ongiga mos ravishda joriy etishga yo'naltiriladi. Tasavvur qiling, o'quvchilar uchun "Milliy meros" mavzusida maxsus mashg'ulotlar tashkil etilayotgan bo'lsa, bunda o'qituvchi yoki pedagog nafaqat nazariy ma'lumot beradi, balki amaliy namunalar orqali o'quvchilarda tarixiy manbalar bilan ishlash ko'nikmasini ham shakllantiradi, xalq og'zaki ijodi, etnografiya bilan bog'liq turli manbalardan foydalanishni o'rgatadi, shundan so'ng, ularda umumlashtiruvchi xulosa chiqarish ko'nikmasi rivojlanadi.

Shu o'rinda, gender tolerantlik tushunchasining pedagogikadagi ahamiyatini qayd etish lozim. Pedagogikada, xususan, gender tolerantlikni rivojlantirish yosh avlodni teng huquqlilik, hamkorlik, bag'rikenglik, insonparvarlik tamoyillarida

<sup>2</sup> Ходжаев Б. и др. Педагогик тадқиқотлар методологияси. – 2019.

tarbiyalashni nazarda tutadi. Bu jarayonda, bir tomondan, ma'rifiy ishlarni amalga oshirish, boshqa tomondan, amaliy mashg'ulotlar va ilovaviy tarbiyaviy choratadbirlar (davra suhbatlari, yig'inlar, amaliy loyihalar, ixtisoslashgan to'garaklar, teatrlashtirilgan ko'rgazmalar va boshqalar) orqali gender tolerantlikni mustahkamlash talab etiladi<sup>3</sup>.

### NATIJALAR VA MUHOKAMA

Gender tolerantlik har ikki jins vakillari uchun ham birdek ahamiyat kasb etishi lozim. Ya'ni, ayollar o'zida munosib huquqlar, imkoniyatlar mavjudligini anglab olishi, taqdirini mustaqil hal eta olishi, shu bilan birga, erkaklar ham ayol huquqlariga nisbatan tushuncha, hurmat-e'tibor, maslahatlashib ish tutish madaniyatini rivojlantirishi kerak. Bu jarayonda tarbiyachi-ustozlar turli pedagogik texnologiyalar, etnopedagogik dasturlar, amaliy mashg'ulotlar orqali yoshlar ongida takomillashgan dunyoqarashni tarbiyalay olishlari muhim. Pedagogikada shunday qoida borki, bola ma'lum yosh bosqichlarida etnik, milliy, jinsiy mansublikka oid tushunchalarni turli darajada o'zlashtiradi. Masalan, maktabgacha ta'lim yoshida bola jinslarni farqlashni biladi, lekin unda gender haqida chuqur tasavvur bo'lmaydi. Maktab yoshida bola jinslar uchun xos bo'lgan ehtiyoj, qiziqish, jismoniy xususiyatlar va ularni ajratib turadigan jihatlar haqida tushunchaga ega bo'ladi, biroq aliment to'lash, oilaviy munosabatlar, jamiyatda ayollarning siyosiy huquqlari kabi tushunchalar unga quyoshday uzoq ko'rinishi mumkin. Keyinchalik o'rta-maxsus ta'lim yoshida bola bevosita jamiyatda gender masalasi qanchalik dolzarb ekanini, ayollar va erkaklar o'rtasidagi teng huquqlilik demokratik jamiyatni rivojlantirishda nechog'lik ahamiyatli ekanini tushuna boshlaydi. Demak, bu har bir bosqichda etnopedagogik yondashuv asosida konkret manbalar, o'yinlar, tarbiya jarayonlaridan foydalanib bolaga turli shaklda gender tolerantlik g'oyasini yetkazib berish mumkinligini ko'rsatadi<sup>4</sup>.

Etnopedagogik yondashuvda bevosita jamoaviy tadbirlar, marosimlar, bayramlar, milliy sport o'yinlari, mehnat an'analari orqali bolalarni tarbiyalash alohida o'rin tutadi. Chunki bunday tadbirlar odamlarni birlashtiradi, maslahatlashuv, o'zaro ko'mak, bir maqsad yo'lida birlashib ishlashni talab qiladi. Natijada, ayniqsa, yosh avlodda "erkak-a'zo" yoki "ayol-a'zo" tushunchasi emas, balki "jamo a'zosi", "hamkor hamkasb", "teng huquqli sherik" sifatida yondashuv shakllanadi. Shu tariqa gender tolerantlik amaliy ko'nikma sifatida singdiriladi. Misol uchun, milliy sport o'yinlarida qiz bolalar ham faol qatnashishi, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarida qiz yigitlar birlashgan holda chiqish qilishi, milliy raqs yoki kuy-navo bazmlarida har ikki jins o'z hissasini qo'shishi orqali tenglik, bag'rikenglik, birdamlik kabi

<sup>3</sup>Узоков А. Талабаларда мафкуравий иммунитетни шакллантириш технологияси //pedagogik mahorat. – С. 109.

<sup>4</sup> Ахмедова Д. Гендер Тенглик Ва Аёлларнинг Ижтимоий-Иқтисодий Фаоллиги //Boshqaruv va etika qoidalari onlayn ilmiy jurnali. – 2021. – Т. 1. – №. 6. – С. 174-180.

tushunchalar amalda namoyon bo'ladi. Zamonaviy jamiyatda gender tenglik talablarining kuchayishi bilan birga, bu masalani tarbiya jarayonida asrlar osha shakllanib kelgan an'ana, urf-odatlar bilan uyg'unlashtirib olib borish dolzarb ahamiyat kasb etdi. Chunki sharq an'anasi yoki milliy tarbiya tajribasini inkor etish, uni "eski zamon merosi" deb chetlashtirish bilib yoki bilmay jamiyatda yangi munosabatlar uyg'unligini ta'minlashda kamchiliklar keltirib chiqarishi mumkin. Aynan etnopedagogik yondashuv orqali milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz zahirida joylashgan demokratik g'oyalar, insonparvarlik, bag'rikenglik kabi tushunchalarni ilmiy asoslangan holda qayta tahlil etish va bugungi kun talablariga moslashtirish imkoni paydo bo'ladi<sup>5</sup>.

Bugungi kun ta'lim tizimida ham gender tolerantlikni rivojlantirish uchun maxsus dasturlar ishlab chiqilayotgani holda, ularni milliy an'analar bilan boyitish ustuvor vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Masalan, umumiy o'rta ta'lim maktablarida "Oila madaniyati" fanini "Milliy qadriyatlar va gender tolerantlik asoslari" bilan uyg'unlashtirish chora-tadbirlari ko'rib chiqilmoqda. Bu jarayonda faqat nazariy ma'lumot bilan chegaralanmay, balki amaliy o'quv dasturlari asosida qizlar va o'g'il bolalar birgalikda tayyorlaydigan loyihalarni yo'lga qo'yish, ularni bir maqsadda, bir vazifada hamkorlikda ishlashlarini tashkil etish ko'zda tutiladi.

#### XULOSA

Xulosa qilib aytganda, gender tolerantlikni rivojlantirishda etnopedagogik yondashuv bir necha sabablarga ko'ra dolzarb hisoblanadi. Birinchidan, etnopedagogika - milliy qadriyatlar, an'analar, urf-odatlar tarbiya jarayonida samarali manba ekanini ko'rsatadi. Ikkinchidan, etnopedagogik yondashuv sharq jamiyatlarida bag'rikenglik, birdamlik, amaliy munosabatlar kabi tushunchalarni asrlar osha singdirib kelganligini aniqlaydi. Uchinchidan, bu yondashuv orqali ta'lim-tarbiyada tarixiy meroslardan ilmiy asosda foydalaniladi, bu esa yosh avlod ongida "o'zi kabi" (teng huquqli) munosabatlar shakllanishiga yordam beradi. To'rtinchidan, etnopedagogikada mavjud turli ko'rinishdagi tarbiyaviy vositalar - milliy o'yinlar, topishmoq, maqollar, tarixiy shaxslar hayoti haqidagi ma'lumotlar, folklor namunalari, madaniy marosimlar - bolalar ongida gender tolerantlik tushunchasini haqiqiy hayot voqeligi sifatida rivojlantirishda eng yorqin uslublar hisoblanadi. Beshinchidan, etnopedagogik yondashuvda aholi keng qatlami, shu jumladan, otanonalar, mahalla faollari, keksa avlod, ziyolilar hamda ta'lim muassasasi o'rtasida yaqin hamkorlik rivojlantiriladi. Natijada, pedagogik jarayonda amaliy birdamlik vujudga keladi, bu esa jamiyatda gender tolerantlik madaniyatini ommalashtirish uchun mustahkam zamin hozirlaydi.

---

<sup>5</sup> Авлаев О.У. Талабалар камолотида ижтимоий интеллектнинг гендер фарклари //Psixologiya. –2021–№ 1. – С. 22-29.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Кандов Б.М. Янгиланаётган ўзбекистонда гендер тенгликни таъминлаш борасидаги ислохотлар //ББК 72.4 А43. – С. 162.
2. Давронова Д.С. Этнопедагогик технологиялар асосида оилада соғлом маънавий муҳитни барқарорлаштириш имкониятлари: Давронова Дилдора Саидовна, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети “Педагогика ва психология” кафедраси в/б доценти, педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2022. – №. 4. – С. 172-177.
3. Расулмухамедов М.М., Азимов А.А. Pedagogical science/pedagogika профессионал таълим тизимида smart технологияларини жорий этиш //“Uchinchi renessans: Ilm-fan va ta’lim taraqqiyoti istiqbollari” mavzusidagi № 2-sonli ko’p tarmoqli, ilmiy onlayn konferensiya.
4. Тожибоева Х. Гендер маданиятнинг замонавий шакллари вужудга келтирувчи ижтимоий-педагогик омиллар: Ўзбекистон Педагогика фанлари илмий тадқиқот институти докторанти, педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), катта илмий ходим //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2022. – №. 1. – С. 178-182
5. Xayrullayeva N.J., (2025). Gender tolerantlikni rivojlantirishda etnopedagogik metodlarning ilmiy-pedagogik ahamiyati. Fergana methodical school, (3), 108-114.
6. Xayrullayeva N.J., (2025, October). THEORETICAL FOUNDATIONS OF STUDYING GENDER TOLERANCE IN STUDENTS BASED ON AN ETHNOPEDAGOGICAL APPROACH. In London International Monthly Conference on Multidisciplinary Research and Innovation (LIMCMRI) (Vol. 2, No. 1, pp. 68-71).
7. Yuldashev, J., & Xayrullayeva, N. J. (2026). O ‘qituvchi shaxsiyati ta’lim va tarbiya samaradorligining asosiy omili. Science and Education, 7(4), 580-585.
8. Yo’ldashev, J. va Xoljigitov, D. (2025 yil, noyabr). МАТЕМАТИКА О ‘QITUVCHILARI UCHUN RAQAMLI KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH ZARURATI. Ilmiy amaliy anjumanda (1-jild, 1-son, 459-462-betlar).